

ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

Hakimov Akmaljon Mirzag'aniyevich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Qo'qon filiali katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy (axborot, postindustrial) jamiyat taraqqiyotiga xos bo'lgan asosiy tendensiyalar – globallasuv jarayonlari, antigloballasuv, multimadaniylik va uning muammolari – o'zlikdagi inqirozlar, insoniyat kelajagini turlicha tasavvur etishni nazarda tutadigan asosiy konsepsiya va bashoratlari o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: axborot, postindustrial, globallasuv, antigloballasuv, multimadaniylik, taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные тенденции, характерные для развития современного (информационного, постиндустриального) общества - процессы глобализации, антиглобализации, мультикультурализма и его проблемы - кризисы идентичности, основные концепции и прогнозы, предполагающие иное видение будущее человечества изучается.

Ключевые слова: информация, постиндустриальный, глобализация, антиглобализация, мультикультурализм, развитие.

Jamiyat deganda ijtimoiy aloqalar tabiiylaridan ustun turadigan va jamiyat o'z asosi negizida rivojlanadigan va faoliyat ko'rsatadigan insoniyat taraqqiyotining davri tushuniladi.

Insoniyatning taraqqiyoti evolyusiyasi uzluksiz va notekis jarayondan iboratdir. Yer yuzida xalqlarning turlicha tarqalganligi ba'zi hayot kechirish uchun yaroqli mintaqalarda ko'proq to'plangan holda kun kechirishiga olib kelgan. Bu o'z navbatida sivilizatsiyalar va ularga tegishli qadriyatlarning paydo bo'lishining tabiiy sabablari hisoblanadi. sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonida madaniyatlarni boyitish uchun xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy boyliklarning almashinuvi sodir bo'ladi. Bunda turli xildagi lokal sivilizatsiyalarning har biri o'ziga xos bo'lgan belgilarini saqlab qolaveradi.

Biroq shiddatli taraqqiy etayotgan hozirgi zamon uchun sivilizatsiyalararo yaqinlashuv tendensiyasi, umumiy madaniyat va qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan yaxlit dunyo hamjamiyatining qaror topishi xarakterli hisoblanadi.

M. Kastels "muayyan tarixiy davrda paydo bo'ladigan, axborotni qayta ishlash va uzatish mehnat unumdorligi va hokimiyat boshqaruvining fundamental manbalariga

aylanishi tufayli yuzaga keladigan yangi texnologik sharoitlardan iborat ijtimoiy tuzum”⁴⁶ ning ushbu o‘ziga xos shaklini “axborot jamiyati” deb atadi

Zamonaviy jamiyat bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni hozirgi davr uchun ahamiyatli bo‘lgan hodisalarning globallashtirishini tahlil qilish orqali qarab chiqish mumkin.

Globallashuv deganda (ingl. Globalization, frans. Mondialisation, globe – yer shari) “butun dunyoning izchil ravishda zamonaviy institutlarni taraqqiyotgan undaydigan va ularning o‘zaro hamkorligi mexanizmini tezlashtiradigan g‘oyalar erkin tarqaladigan va ularni tashuvchilar bemaolol harakatlanadigan yagona zona yoki hududga aylanib borishi”⁴⁷ va “ushbu jarayonga jalb etilayotgan mamlakatlar hayotining barcha sohalariga kuchli oshkora ta‘sir o‘tkazadigan kompleks geoiqtisodiy, geosiyosiy va geogumanitar hodisa”⁴⁸ tushuniladi.

Globallashuv bizga butunjahon integratsiya jarayonining ob‘ektiv, ortga qaytarilmas va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini bir xillashtirish (unifikatsiya) jarayoni kabi tasavvur uyg‘otadiki, natijada butun yer sharidagi xalqlar va mamlakatlarning o‘zaro yaqinlashuvi va bir-biriga bog‘liqligi yuzaga keladi.

Biroq “globallashuv” tushunchasini ta‘riflar ekanmiz, quyidagilarni qayd etib o‘tish lozim: Birinchidan, globallashuv” tushunchasi yaqin vaqtlargacha birona ham lug‘atda ta‘rif berilmagan yangi tushunchadir. Undan birinchi marta 1983 yilda amerikalik T. Levitt o‘zining «Harvard Business Review» nomli maqolasida foydalangan deb hisoblashadi, biroq ko‘p hollarda “globallashuv” tushunchasining mualliflari deya amerikalik va britaniyalik siyosatshunoslar Dj. Maklin, R. Robertson, T. Levitt va Dj. Meyerlar tilga olinadi, tushuncha sifatida esa ilk bor qo‘llanilgan davr deb 1980-1983 yillar qayd qilinadi. 1990-yillarning oxiridan boshlab ushbu tushuncha faqatgina ilmiy kategoriya emas, balki siyosiy kategoriya sifatida ham e‘tirof etila boshladi.

Ikkinchidan, ilmiy jamoatchilik orasida ushbu jarayon to‘g‘risida umumiy bo‘lgan yagona fikr mavjud emas. Globallashuv butun sayyoramiz miqyosida yangi jahon hamjamiyatining shakllanishi jarayonidir, degan fikrga tayangan holda olimlar ushbu hamjamiyatga kiradigan davlatlarning maqsadlari haqida bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni ham bildiradilar.

Bunda munozaralarga sabab bo‘lgan hola “antiglobalizm”ning paydo bo‘lishi hisoblanadi. Ularning ba‘zi vakillari⁴⁹, hattoki, globallashuvni dunyoga hukmronlik qilishni da‘vo qilayotgan rivojlangan davlatlar orasida yuzaga kelgan fitnaning oqibati deb o‘ylashadi. M.R. Sharipov globallashuv muammolarini jahon sivilizatsiyasi kontekstida qarab chiqar ekan ta‘kidlaydiki, “g‘arb turmush tarzi o‘z manfaatlari yo‘lida globallashuvga erishish va qo‘shni davlatlarning boyliklarini qo‘lga kiritish maqsadida butunjahon ekspansiyasini amalga oshirish va ularning hayotiga suqilib kirib, ekspluatatsiya qilishga

⁴⁶Кастельс М. Информационное общество и государство благосостояния: Финская модель. - М.: Логос, 2002.-С. 41-42.

⁴⁷ Бек У. Что такое глобализация?: Ошибки глобализма - ответы на глобализацию. / Пер. с нем. А. Григорьева, В. Седелника; Общ. ред. и послесл. А. Филиппова. - М.: Прогресс- Традиция, 2001. - 304 с. - С. 14.

⁴⁸Буянов В. С. Глобализация: сущность, истоки, неоднородность. // Безопасность Евразии. - М., 2006. -№3.~ С. 351-356.

⁴⁹ Негрепonti-Деливани М. Заговор «глобализации»: путь к мировому кризису. - Барнаул, Изд-во Алт. ун-та, 2009. - 420 с.

intilmoqda, rivojlanmagan mamlakatlarda ulkan inqirozlar va boshi berk vaziyatlarni keltirib chiqargan holda, antiglobalizmni jiddiy siyosiy kuch sifatida yuzaga chiqarish uchun harakat qilgan holda yangicha dunyoviy tizim va tuzumni o'rnatishga intilmoqda"⁵⁰.

Globalashuvni tahlil etishdagi ayrim qiyinchiliklarni, bizningcha, quyidagi sabablar bilan izohlashimiz mumkin:

1. Tushunchani izohlashda ko'pincha milliy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlar ta'sir etmoqda.

2. Globalashuv barcha davlatlar uchun bir xil bo'lgan jarayon emas. Turlicha rivojlanish darajalarida har xil imkoniyatlarga ega bo'la turib davlatlarning globalashuv jarayonlari ham har xil tushuniladi. Globalashuv uchinchi dunyo mamlakatlari uchun Yevropa mamlakatlaridagidan ko'ra boshqacharoq tasavvur etiladi.

Hozirgi zamon jamiyatidagi yana bir tendensiya bo'lgan migratsion jarayonlar, albatta, insoniyat tarixida yangi hodisa emas. Biroq zamonaviy jamiyat sharoitida ular ilgari davrlardan yangicha shaklga ega bo'lmoqda. Masalan, hozirda Yevropa va Shimoliy Amerikaga ko'chib o'tayotgan yuz minglab muhojirlar millionlab saylovchilarga aylanishadi. Bunda "etnik ko'chmanchilar mahalliy guruhlar bilan uzoq muddat davomida, lekin postindustrial jamiyatning yangi sharoitlarida, madaniy aloqalarga kirishadilar, global iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish zanjiri esa oddiygina qatnashishni emas, balki faol ishtirok etishni talab qiladi. Migratsiya ularni keltirib chiqargan sabablardan qat'iy nazar ertami-kechmi ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Bunga G'arbiy Yevropadagi ayrim mamlakatlar, masalan, Fransiya va Germaniya kabilardagi saylovlarda irqiy shiorlar bilan ishtirok etgan o'ng radikal kuchlarning muvaffaqiyatlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari A.I. Kuropyatnikning ta'kidlashiga ko'ra, "muammosiz madaniyatlararo muloqotni o'zaro tushunish muammosi yevropacha o'z-o'zini anglashdagi inqiroz bilan bog'langan. Sobiq mustamlaka va dominionlari bo'lgan hududlardan ko'chib o'tayotgan muhojirlar hisobiga sanoati rivojlangan davlatlar aholisi o'rtasida tobora kuchayib borayotgan ksenofobiya (boshqa etnik guruhga mansub kishilar yoki xorijliklarga nafrat tuyg'usi bilan qarash) odamlarga yevropacha voqeilik multimadaniy, o'zgaruvchan, beqaror va ziddiyatli tus olayotganligi har doim ham tushunarli emas".

Hozirgi zamon jamiyatiga xos bo'lgan yana bir tendensiya *multimadaniylashuv* (madaniy ko'pxillilik) hisoblanadi. U real ijtimoiy harakat va muayyan fikr oqimi va mafkura sifatida yangi hodisa hisoblanadi.

"Multimadaniylik" tushunchasi 1971 yilda Kanadada paydo bo'lgan va aynan o'sha yerda, multimadaniylikni rasmiy yo'nalish sifatida (ilgari bunday yo'nalish 1950 yilda qabul qilingan Hindiston Konstitutsiyasida qayd etilgan) qabul qilgan g'arb dunyosining birinchi mamlakatida ushbu siyosat juda samarali bo'ldi. Mamlakat aholisi o'zining maxsus etnik birlik (Kanadada 100 dan ortiq etnik guruhlar brligini ajratib ko'rsatish mumkin) ekanligini

⁵⁰ Шарипов М.Р. Глобализация и кризисы мировой цивилизации. Глобализация и культура: аналитический подход. - СПб, Янус, 2003. - С. 6.

aniq-ravshan anglab yetdi va XX asr oxirida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish chog'ida 3 % dan ortiq aholi o'zini oddiygina qilib "kanadalik" deb atadi.

I.V. Frolovning ta'kidlashicha: "globallashtirish bir tomondan ongning universallashtirish oqibati sifatida birxillashtirishni talab qiladi, boshqa tomondan esa, zamonaviy sivilizatsiyaning madaniy yo'naltirilganligi bunday mavhum birxillashtirishga imkon qoldirmaydi. Yoki, boshqacha qilib aytganda, tarixiy taraqqiyot bugunga kelib nafaqat madaniyatlarni birlashtirish, balki ularning ichki taraqqiyotini ham talab qiladi"⁵¹.

Yana bir tendensiya – globallashtirish muammolari ilgarigi tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida kishilar o'rtasidagi munosabatlarning yanada keskinlashuviga olib keldi va bundan tashqari insoniy madaniyat bilan tabiiy muhit o'rtasidagi qarama - qarshilikning ham kuchayishiga olib keldi. Kishilarning tabiat dunyosiga kirib borishi misli ko'rilmagan miqdorga ega bo'la boshladi va insoniyat tomonidan keltirilayotgan zarar ham mutlaqo ayon bo'lib qoldi.

Bu bilan zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi asosiy tendensiyalarni qayd etgan holda ular yangi muammolarni keltirib chiqarayotganligini ham ta'kidlamoqchimiz. Ushbu muammolar jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv omili sifatida paydo bo'lib, hozirgi zamon sivilizatsiyasida sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlarning oqibati sifatida xalqaro hamjamiyat mamlakatlarining qiziqishlarini uyg'otgan holda umumiy xarakter kasb eta boshladi. Oqibatda ular *hozirgi davrning global muammolari* (ingl. Global Problems of Mankind) degan nom oldi va butun sivilizatsiyaning keyingi taraqqiyoti nafaqat ularning hal etilishi, balki uning keyingi mavjud bo'lishi (yashab qolishi) ham shunga bog'liq bo'lib qoldi. U.O. Duglas ta'kidlaganidek, "atrof-muhitga nisbatan biz o'tkazayotgan shafqatsiz zo'ravonlik insoniyatning o'zining mavjud bo'lishiga nisbatan xavf-xatarning yana bir shaklidir"⁵².

"Global muammolar" tushunchasi Rim klubining faoliyati natijasida ilmiy muomalaga kiritilgan va keng tarqalgan edi.

Rim klubi (ingl. Club of Rome, nem. Romisch klub) xalqaro nodavlat ilmiy-tadqiqot jamoat tashkiloti bo'lib, 1968 yilda iqtisodchi A.Pechcheyaning tashabbusi bilan "ilmiy-texnika inqilobi davrida insoniyat taraqqiyoti xususiyatlarini tushunishni chuqurlashtirish" maqsadida tashkil topgan.

Insoniyat oldida turgan xatarlar va ularni bartaraf etishni anglab yetish zaruriyati bilimning yangi sohasi – global muammolar yoki globalistika nazariyasining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu nazariya ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy omillarni e'tiborga olgan holda global muammolarni hal etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Mazkur muammolarni o'rganish usullaridan biri global modellashtirish bo'lib, uni tavsiya etishda Rim klubining alohida o'rni bor.

⁵¹Фролова И.В.Оправдание утопии: опыт социально-философской реконструкции. -Уфа: РИО БашГУ, 2004.-268 с.

⁵²Дуглас У. О. Трёхсотлетняя война. Хроника экологического бедствия. - М.: Прогресс, 1975.-С. 23.

Zamonaviy jamiyatning global muammolari haqida gapirilar ekan, insoniyat oldida paydo bo'ladigan xatarlarning tahlilidan kelib chiqqan holda ularni shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin: 1. "inson-texnika, 2."inson-tabiat, 3. "inson-jamiyat", 4. "inson-madaniyat".

Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, turli guruhlarga ajratganimiz bilan global muammolarning yaxlit kompleksi o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo qiladigan hodisadan iboratdir.

"Inson-texnika" muammolar guruhi atom va termoyadro energiyasidan foydalanish oqibatida yuzaga keladigan xavf-xatarlar bilan bog'liq. Jahon termoyadro urushi oqibatida "yadro qishi" kirib kelishi mumkin. U yirik miqyosdagi yong'inlar oqibatida (yer sayyorasida to'planib qolgan yadro harbiy kallaklarining 30-40 %ining portlashi) yuzaga keladigan katta miqdordagi tutun va qurumlarning stratosferaga chiqarib tashlanishi natijasida hamma joyda iqlimning arktika darajasigacha pasayib ketishi mumkin (bu quyosh nurlarining qaytarilishi miqdori oshib ketishi tufayli ro'y beradi), bu esa, o'z navbatida yer yuzasidagi iqlimni global darajada o'zgartirib yuborishi mumkin.

"Inson-tabiat" muammolari guruhi tabiat tizimlarida tuzatib bo'lmaydigan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Insonning tabiatni o'zgartiruvchi faoliyati atrof-muhitdagi holatning keskin buzilishiga olib keldi: atmosfera, Dunyo okeanining ifloslanishi; ozon qatlamining buzilishi; o'simliklar va hayvonlarning minglab turlarining yo'q qilinishi; o'rmon zahiralarning kesib yuborilishi; yer osti qazilma boyliklari, chuchuk suv zahiralarning tugatilishi va h.k. Insonning tabiatga nisbatan iste'mol munosabatlari uning tuzilishi va funksiyasining buzilishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida insonning o'zining rivojlanishi, uning sog'ligi va yashab qolish imkoniyatlarining ham buzilishiga sabab bo'ladi.

Atrof muhitga insonning o'ylamasdan aralashuvi oqibatida tabiiy kaktaklizmlar miqyosi dahshatli tus olmoqda, yuz minglab kishilarning umriga zomin bo'lmoqda. Chernobil AESida sodir bo'lgan portlash, "Fukusima" AESi ro'y bergan fojialar atrof-mug'itning radioaktiv zaharlanishiga olib keldi. Buning oqibatida yer shari aholisi orasida o'lim holatlarining ortishiga sabab bo'ladigan onkologik kasalliklar, tug'ma patologiyalar soni ko'paydi.

"Inson-jamiyat" muammolar guruhi ham atrof-muhitdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlar bilan bog'liq. Bundan tashqari ushbu guruhga demografik inqiroz, OITS (amerikaning «Time» jurnali ma'lumotlariga ko'ra⁵³ har yili 70 mingga yaqin bolalar ota-onasining OITSga chalilib, vafot etishi oqibatida yetim qolishmoqda), narkomaniya ("Giyohvandsiz dunyo uchun" fondi ma'lumotlariga ko'ra 2006 yilning o'zida AQShda 2,6 mln kishi tibbiy narkotikka bog'liqlik holatiga tushib qolgan, 50% o'smirlar tibbiy giyohvandlikni ko'chalarda ta'qiqlanandan ko'ra xavfsizroq deb hisoblashadi), terrorizm, lokal urushlar inson va jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida paydo bo'lgan.

⁵³ Karon T. aids orphan's preventable death challenges those left behind. // time, friday, june 01, 2001.

Terrorizm hozirgi zamonning eng keskin muammolaridan biridir. Xalqaro terrorizm XX asrning 1960-yillarida paydo bo'lib, "millatlararo ziddiyatlar avj olgan hududlarda territorial, etnik va konfessiyalararo ixtiloflar sifatida" yer shari miqyosida keng tarqalib bormoqda.

Zamonaviy terroristik tashkilotlar (Al-Qoida, Al-Jihod, Xamas, Xezballoh va b.) terroristlarni qurollantirish, maxsus materiallar, jihozlar bilan ta'minlashda eng zamonaviy ishlanmalardan foydalanmoqdaki, natijada u "ilgarigi davrlardagi terroristning qurollanish va jihozlanish darajasi bo'yicha ularga qarshi turgan davlat xavfsizlik organlari bilan hech bir tenglashtirib bo'lmagan terroristlardan keskin farq qiladi.

Milliy, mintaqaviy va dunyo miqyosida avj olib borayotgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro davlatlar bilan birga butun insoniyatni birlashtirishni talab qiladigan kompleks xarakterda bo'lishi lozim.

"Inson-madaniyat" muammolari guruhi eskirib qolgan axloq-odob qadriyatlaridan iborat "ommaviy madaniyat"ning inqirozi xavfini yuzaga keltirishi mumkinligi bilan bog'liq. Globallashuv jarayonlarining tobora avj olishi inson hayotini qiyinlashtirdi. Natijada ko'p hollarda odamlar psixotrop moddalardan foydalanish, narkotik moddalardan kayf qilish, dunyoning real muammolaridan virtual dunyoga tomon ko'chib o'tish, mavjud muammolarni virtual reallik bilan qorishtirish sari intilmoqdalar. Bu esa o'z navbatida yanada kattaroq qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Bu to'g'rida O.I. Yelxova ta'kidlaganidek, "inson real dunyoning o'zidayoq mo'ljalni yo'qotmoqda va real dunyoda real hayot bilan uning elektron o'yinini farqlab turadigan chegarani payqay olmaydigan darajaga yetmoqda"⁵⁴. O'zining atrofida hamfikrlarni birlashtirish, maslakdoshlarni to'plash, muloqotga kirishishni tashkillash maqsadidagi ijtimoiy tarmoqlar sonining ko'payib borishi («odnoklassniki», «Facebook», «twitter» i b.) hozirgi zamonda keskinlashib borayotgan muammo – yolg'izlik muammosining paydo bo'lish sabablaridan biri bo'ldi, qaysiki, "bir qaraganda juda jozibali tuyulsa-da, pirovard oqibatda yolg'izlangan kishilarning borlig'iga aylanmoqda.

Ommaviy ravishda kompyuterlashtirish, suniy intellektni yaratish muammosini hal etish tomon sa'y-harakatlar insoniyatni o'z ma'naviyatini yo'qotish, ya'ni o'ylash, his etish, go'zallikni yaratish qobiliyatini yo'qotish sari tavakkalchilikka olib keladi. Bundan tashqari, A.F. Fayzullining qayd etishicha, "globallashuv davrida insonning universal rivojlanishi, eng avvalo, uning universal hissiyotini nazarda tutadi"

Shunday qilib, agar o'tmishda insonning musibatlar falokatlar, ochlik va epidemiyalar tufayli ro'y berib kelgan bo'lsa, hozirgi jamiyat esa yangi qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan bir qator global muammolarni keltirib chiqardi.

Shunday qilib, hozirgi jamiyat taraqqiyotiga oid tendensiyalarni tahlil qilar ekanmiz, biz bir qator xulosalarga kelganligimizni ta'kidlashimiz lozim:

⁵⁴Елхова О.И. Виртуальная реальность коммуникации. // Известия Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена. - СПб., 2010. - № 137. - С.66.

1. Zamonaviy jamiyat insoniyat tarixida axborot va bilim juda muhim rol o'ynaydigan alohida izchillikka ega bo'lgan bosqichni tashkil qiladi.

2. Globallashuv jarayonlari o'zidan oldingi taraqqiyotga nisbatan takrorlanmas jarayon sifatida insoniyat uchun o'z-o'zini aynanlashtirish inqirozi, multimadaniylashuv muammosi, hayot tempi va vaqtining tezlashuvi, til an'alarining o'zgarishi kabi yangi muammolarni keltirib chiqaruvchi tub o'zgarishlarga olib keladi. Hozirgi zamon axborot jamiyati bunda xo'jalikning xom-ashyo sohalari, noaxborot resurslari, moddiy boyliklarni ishlab chiqarishga nisbatan qaramligi va bog'liqligi saqlanib qoladi.

3. Kishilar o'rtasidagi munosabatlarda keskinlikning va inson bilan tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilikning kuchayishi insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun, biroq ro'y berishi mumkin bo'lgan halokatlarning takrorlanmasligi nuqtai nazaridan uning kelajakda yashab qolishi uchun ham xavf soladigan hozirgi davrning global muammolarini keltirib chiqardi.

4. Ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuvi, voqeilikning shiddat bilan o'zgarayotganligi, jamiyatni tashkil etish shakllaridagi o'zgarishlar, hozirgi zamon jamiyati muammolari miqdorining tobora ko'payib borayotganligi uning taraqqiyotini bashorat qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кастельс М. Информационное общество и государство благосостояния: Финская модель. - М.: Логос, 2002.-С. 41-42.

2. Бек У. Что такое глобализация?: Ошибки глобализма - ответы на глобализацию. / Пер. с нем. А. Григорьева, В. Седельника; Общ. ред. и послесл. А. Филиппова. - М.: Прогресс- Традиция, 2001. - 304 с. - С. 14.

3. Буянов В. С. Глобализация: сущность, истоки, неоднородность. // Безопасность Евразии. - М., 2006. - №3. ~ С. 351-356.

4. Негрепonti-Деливани М. Заговор «глобализации»: путь к мировому кризису. - Барнаул, Изд-во Алт. ун-та, 2009. - 420 с.

5. Шарипов М.Р. Глобализация и кризисы мировой цивилизации. Глобализация и культура: аналитический подход. - СПб, Янус, 2003. - С. 6.

6. Фролова И.В. Оправдание утопии: опыт социально-философской реконструкции. -Уфа: РИО БашГУ, 2004.-268 с.

7. Дуглас У. О. Трёхсотлетняя война. Хроника экологического бедствия. - М.: Прогресс, 1975.-С. 23.

8. Karon T. aids orphan's preventable death challenges those left behind. // time, friday, june 01, 2001

9. Елхова О.И. Виртуальная реальность коммуникации. // Известия Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена. - СПб., 2010. - № 137. - С.66.

10. A Khakimov Modern approaches to civilization and sociological trends in the development of civil society Экономика и социум, 2020.-76-79
11. AM Хакимов Основные черты и эпистемологический анализ формационного и цивилизационного подходов Экономика и социум, 2023.-751-757
12. UA Ergashev, AM Hakimov MYSTICISM-SPIRITUCL-MORAL UPBRINGING Экономика и социум, 133-136